

ZAMONAVIY FALSAFADA QIYOSLASH VA KOMPARATIVISTIKA METODOLOGIYASINING TAHLILI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14543675>

Karimov Rahmat Rahmanovich,
Mirzo Ulug’bek nomidagi
O’zbekiston Milliy universiteti professori

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy falsafadagi qiyoslash va komparativistika metodologiyasi tahlil qilingan. Komparativistikaga asos bo’lgan qiyosiy tahlil usuli qadimgi va antik davr faylasuflari tomonidan keng qo’llanilgani yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Zamonaviy falsafa, komparativistika, metodologiya, tahlil, qadimgi falsafa, bilim.

Zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda qiyosiy usulning keng qo’llanilishini kuzatishimiz mumkin, bu falsafiy bilimning falsafiy komparativistika yo‘nalishining ommalashuvi bilan bog‘liq. Qiyosiy falsafa qamrab olgan soha jiddiy ilmiy xususiyatga ega, chunki bu yerda tadqiqotchilar turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar, ularning hodisa va jarayonlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadilar. Ayniqsa, bu yerda bilimning turli sohalari tomonidan o‘rganiladigan madaniyatlararo muloqot hodisasiga e’tibor qaratish muhimdir. Garchi falsafiy komparativistika falsafa orqali u yoki bu madaniyatlarning yaqinlashish nuqtalarini topishga qaratilgan soha bo‘lsada¹, uning metodologik asosi har doim ham qiyosiy tahlil metodologiyasidan ajratilmaydi. Ko‘pincha qiyosiy tahlil va komparativistika, qiyoslash va komparativistikani tenglashtirishga duch kelish mumkin. Ta’kidlash joizki, qiyoslash komparativistikaning asosiy usullaridan biridir. Shu bilan birga, komparativistikaning o‘zi qiyosiy falsafiy tadqiqotlarning mustaqil sohasidir. Bizning ishimiz nuqtai nazaridan esa qiyoslash usulining taqqoslash usulidan farqlanishiga e’tibor qaratish muhimdir.

Shunday qilib, komparativistikaga asos bo’lgan qiyosiy tahlil usuli qadimgi va antik davr faylasuflari tomonidan keng qo’llanilgan. Masalan, Ch.Aliyeva ta’kidlaganidek, keyingi davr moistlari narsalarni o‘xshashlik va farqlarini aniqlash orqali bilishning yo‘li yoki usuli sifatida qiyoslashni tushunish, qiyoslash shartlari va chegaralari haqida savollar ko’targan. Ular qiyoslashlarni oqilonaga va nooqilonaga, shu tariqa mutanosib qiyoslash muammosini qo’yishgan². Qadimgi hind falsafiy

¹ Бекбаев Р.Р. Философская компартистика и межкультурная философия: от синтеза к многообразию // ЎзА Илм-фан бўлими (электрон журнал). 2022 йил май ойи сони. – С.283.

² История китайской философии. – Москва: Прогресс, 1989. – С.127.

maktabida nyaya o‘xshatish yoki umaman idrok (bratyaksha), xulosa (anuman) va isbot (shabda) bilan birga haqiqiy bilimning mustaqil manbai sifatida qaraladi³. Nyaya tizimida o‘xshatish narsa va uning nomi yoki so‘z va uning aniq ma’nosи o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatishga qaratilgan⁴. Shuni ta’kidlash kerakki, bu yerda o‘xshatish o‘xshashlik usuliga asoslanadi, chunki odam u yoki bu narsani boshqasining o‘xshashligi asosida aniqlaydi. Nyya tizimidan tashqari, o‘xshatish bilish manbai sifatida mimansda belgilanadi, bu yerda o‘xshatish yordamida bilish ushbu obyektni idrok etishning o‘tmishda idrok etilgan obyekt bilan o‘xshashligi asosida biz esga olinadigan obyekt idrok qilinayotgan obyektga o‘xshashligini bilishga o‘tganimizda paydo bo‘ladi⁵. Mimansa bu qoidasi bilan nyayaning o‘xshatish bilishning yangi manbai ekanligi haqidagi xulosasini inkor qiladi, chunki u faqat o‘tmishdagi bilishning mantiqiy xulosasidir, xolos. Mimansa matabining ushbu xulosasi qiyosiy tahlil metodini komparatsiya metodidan ajratish uchun muhim metodologik ahamiyatga ega.

Qadimgi falsafada matematika nuqtai nazaridan taqqoslash usuli pifagoreizmda namoyon bo‘ladi. Bu yerda taqqoslash, avvalo, munosabatdir, ya’ni narsalarning, koinot unsurlarining matematik mutanosiblik va o‘lchovdoshlik nisbati⁶. Taqqoslash usulini biz Geraklitda ham kuzatamiz, u “yagona” va “ko‘p” o‘rtasidagi munosabat muammosini o‘rganayotganda⁷, hamda Aflatunda ham uning g‘oyalar nazariyasi doirasida ko‘ramiz. Xususan, Aflatunizmda g‘oya va narsa farqlanadi, ularni taqqoslab, mutafakkir har qanday narsa uning g‘oyasining buzilishidan boshqa narsa emas, degan xulosaga keladi Aflatun “Davlat” dialogida shaxslar bu dunyoda yashab, sezgi orqali olingan bilimlarni haqiqat deb qabul qilishlarini ta’kidlaydi, vaholanki, g‘oyalarni faqat aql yordamidagina haqiqiy bilish mumkin⁸. Qiyosiy usul Arastu risolalarida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi, jumladan “Metafizika” aynan hayvon va insonni, sezgi va aqliy bilishni taqqoslashdan boshlanadi. Arastuning mantiqini alohida ta’kidlash lozim, bu yerda, masalan, kategoriylar borliqning dastlabki farqlari va qarama-qarshiliklari sifatida tilga olinadi⁹. Bundan tashqari, o‘xshatishga ham e’tibor qaratish kerak, bu orqali tabiiy narsalarning shakl, yo‘qlik va modda kabi umumiylashtirish asoslari o‘rganiladi. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, IX-XII asrlar Markaziy Osiyo falsafasida qiyosiy tadqiqotning aniq yo‘nalishlarini kuzatish

³ Чаттерджи С., Датта Д. Введение в индийскую философию. – Москва: Изд-во иностранной литературы, 1955. – С.42.

⁴ O’sha manba. B.175.

⁵ O’sha manba. B.268.

⁶ Алиева Ч.Э. Философская компаративистика: проблема концептуализации. – Санкт-Петербург: СПбГУ РГБ, 2006. – С.138

⁷ Гераклит Эфесский: все наследие: на языках оригинала и в рус. пер. – Москва: Ад Маргинем Пресс, 2012. – С.90-91.

⁸ Платон. Государство. – Москва: Академический проект, 2015. – С.239-240.

⁹ Луканин Р.К. Органон Аристотеля. – Москва: Наука, 1984. – С.23.

mumkin. Jumladan, Abu Nasr Forobiy asarlarida Aflatun, Arastu va neoAflatunchilar falsafasini tahlil qilishda qiyosiy usulning qo‘llanilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, Forobiy falsafa tarixchisi sifatida germenevtikaning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan sharhash usulini qo‘llaydi¹⁰. Aynan shu yerda biz asta-sekin o‘zgarish, qiyosiy tahlildan komparatsiyaga o‘tish uchun zamin yaratilganini ko‘ramiz. Bu Forobiyning Aflatun va Arastu falsafasini o‘rganish va taqqoslashda nafaqat o‘xhashlik va farqlarni aniqlash bilan cheklanib qolmaganida, balki o‘z yondashuvini metodologik jihatdan kengaytirganida namoyon bo‘ladi. U sintez orqali antik an’ananing nusxasi bo‘lmagan yangi, o‘ziga xos va betakror ta’limotni yaratishga erishdi. Aynan shu yerda biz qiyosiy tahlil va komparatsiya o‘rtasidagi muhim farqni ko‘ramiz. Qiyosiy tahlil faqat o‘xhashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, komparatsiya taqqoslash orqali yangi bilim, g‘oyalalar va yondashuvlarni shakllantirishga olib keladi. Komparativistikaning butun metodologiyasi aynan shunga asoslanadi. Chunki qiyosiy falsafa diskursida madaniyatlararo tadqiqotlar markaziy o‘rinni egallaydi. Agar bu tadqiqotlar faqat madaniyatlarning yaqinlashish va farqlanish jihatlarini tasvirlash bilan cheklansa va madaniyatlararo muloqotning o‘zi imkonsiz bo‘lsa, ular boshi berk ko‘chaga kirib qolgan bo‘lar edi.

Zamonaviy falsafiy komparativistika “bir-biridan uzoqda” ham rivojlanishi va mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli madaniyatlarni qiyosiy o‘rganishga yo‘naltirilgan. Bu nuqtayi nazardan, D.Vong komparativistik tadqiqotning predmeti turli madaniyatlarning falsafiy an’alarining o‘zaro mutanosibligi masalasini ham o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi¹¹. Bu mulohaza muhim metodologik ahamiyatga ega bo‘lib, oddiy taqqoslashdan ko‘ra kengroq qamrovga ega. Bu masalada tadqiqotchilarning fikrlari keskin farq qiladi: ba’zilari madaniyatlar mutanosibligi imkoniyatini inkor etsa, boshqalari buning yo‘llarini ko‘radi. Shuningdek, komparatsiya metodologiyasida germenevtika ham alohida o‘rin egallaydi, chunki boshqa madaniyatning falsafiy fikrini turli mutafakkirlar asarlarini o‘rganish va talqin qilmasdan turib tushunish mumkin emas. Til o‘zi qiyoslash uchun metodologik jihatdan muhimdir, chunki X.-G.Gadamer ta’kidlaganidek, germenevtika tushunishning o‘zi amalga oshadigan universal muhitdir. Buni amalga oshirish usuli talqin qilishdir¹². Qiyosiy tahlil va komparatsiyaning yana bir muhim metodologik farqi analogiyadir. L.Shkofning ta’kidlashicha, komparativistikaning o‘zi

¹⁰ Курмангалиева Г.К., Сейтахметова Н.Л. Абу Наср аль-Фараби: интеллектуальное открытие мира. – Алматы: Казак университети, 2012. – С.193.

¹¹ Skof L. Pragmatism and Social Ethics: An Intercultural and Phenomenological Approach // Contemporary Pragmatism. 2008. №5 (1). – P.121-146.

¹² Гадамер Х.-Г. Истина и метод. – Москва: Прогресс, 1988г. – С.452.

analogiyaning universal pozitiv fanidir¹³. Komparativistika asoschilaridan biri P.Masson-Urselning qiyosiy tadqiqotlari ham analogiyalarga asoslanadi. U Yevropa, Hindiston va Xitoy falsafalari o‘rtasidagi o‘xshashlikni aniqlash uchun Kont pozitivizmi va qiyosiy usulni qo‘llashga harakat qilgan¹⁴.

Komparatsiya va qiyosiy tahlil falsafiy bilishning o‘xshash, lekin ayni paytda farqli usullaridir. Taqqoslash hodisa va jarayonlar orasidagi o‘xshashlik hamda farqlarni izlashga asoslangan bo‘lsa, komparatsiya keng qamrovli metodologik asosga ega bo‘lib, boshqa sohalarning usullarini o‘zida mujassam etadi va mavjud tushunchalar doirasida cheklanib qolmay, yangi bilimlar yaratishga yo‘naltirilgan. Bu nafaqat Sharq va G‘arb, balki Shimol va Janub madaniyatlarini o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqot yo‘llarini topishda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bugungi globallashayotgan dunyoga ko‘p qutblilik va plyuralizm xos xususiyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бекбаев Р.Р. Философская компаративистика и межкультурная философия: от синтеза к многообразию // ЎзА Илм-фан бўлими (электрон журнал). 2022 йил май ойи сони. – С.281-287.
2. История китайской философии. – Москва: Прогресс, 1989.
3. Чаттерджи С., Датта Д. Введение в индийскую философию. – Москва: Изд-во иностранной литературы, 1955.
4. Алиева Ч.Э. Философская компаративистика: проблема концептуализации. – Санкт-Петербург: СПбГУ РГБ, 2006.
5. Гераклит Эфесский: все наследие: на языках оригинала и в рус. пер. – Москва: Ад Маргинем Пресс, 2012.
6. Платон. Государство. – Москва: Академический проект, 2015.
7. Луканин Р.К. Органон Аристотеля. – Москва: Наука, 1984.
8. Курмангалиева Г.К., Сейтахметова Н.Л. Абу Наср аль-Фараби: интеллектуальное открытие мира. – Алматы: Қазақ университеті, 2012.
9. Skof L. Pragmatism and Social Ethics: An Intercultural and Phenomenological Approach // Contemporary Pragmatism. 2008. №5 (1). – P.121-146.
10. Гадамер Х.-Г. Истина и метод. – Москва: Прогресс, 1988.
11. Masson-Oursel P. Comparative Philosophy. – London: Kegan Paul, 1926.

¹³ Skof L. Pragmatism and Social Ethics: An Intercultural and Phenomenological Approach // Contemporary Pragmatism. 2008. №5 (1). – P.123.

¹⁴ Masson-Oursel P. Comparative Philosophy. – London: Kegan Paul, 1926.